

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MEHMONXONA XO‘JALIGINI BOSHQARISH VA SERVIS FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Mehmonxona xo‘jaligini boshqarish va servis fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Turizm va mehmondo‘stlik asoslari

1. Turizm va mehmondo‘stlik asoslari faniga kirish;
2. Turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlar;
3. Mehmondo‘stlik sohasida joylashtirish xizmatlari;
4. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari.
5. Turizm sohasida transport xizmatlari;
6. Turizm sanoati va infratuzilmasi;
7. Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Turizm va mehmondo'stlik asoslari faniga kirish	Turizm va mehmondo'stlik asoslari faning maqsad va vazifalari; Turizmning shakllanish tarixi. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta
2	Turizm sohadagi xizmatlar va mahsulotlar	Turistik xizmatlar (asosiy va qo'shimcha) va mahsulotlar, turistik xizmatlar tafsilotlarining "4S" bilan ifodalay oladi. Xizmat ko'rsatish klasslari va xizmatlar paketi haqida bilimlarga ega bo'ladi.	32,5 %	13 ta
3	Mehmondo'stlik sohasida joylashtirish xizmatlari	Mehmondo'stlik sohasida joylashtirish vositalari va xizmatlar. Mehmonxonalarining turlari va tasnifi haqida bilimlarga ega bo'ladi.	27,5 %	11 ta
4	Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari	Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlarining turlari va tasnifi haqida bilimlarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
5	Turizm sohasida transport xizmatlari	Turizm sohasida transport xizmatlari. Turizm sohasida transport vositalari. Turizm sohasida transport xizmatlarining turlari va qulaylik darajasi haqida bilimlarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta
6	Turizm sanoati va infratuzilmasi	Turizm sanoati va uning infratuzilmalari tushunchalarining mohiyati va tarkibiy qismi. Turoperatorlar va turagentlar faoliyati haqida bilimlarga ega bo'ladi.	2,5 %	1 ta
7	Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi	Xorijiy davlatlarda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda turizm obyektlarini boshqarishning tashkiliy jihatlari haqida bilimlarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	65 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Turizm va mehmondo'stlik asoslari. I.S.Tuxliyeva, A.A.Eshtayev, B.B.Xolov, N.Xakimova "Ipak yo'li" Samarqand 2022
2. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish R.S.Amiriddinova , Z.O.Rahimov, M.T.Aliyeva . Toshkent 2019
3. Mehmonxona xo'jaligini boshqarish D.S.Umirova. "Toshkent-Iqtisodiyot" 2019
4. Mehmonxona xo'jaligi infratuzilmasi. F.N.Xalimova, Sh.S.Sayfuddinova "Toshkent-Iqtisodiyot" 2019
5. Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishning xalqaro tajribasi. D.I.Abidova, Sh.Siddiqov "Toshkent-Iqtisodiyot" 2019